



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MOLIVAVIY NAZORAT TIZIMIDA AUDITNING ROLI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20532798>

**Abdutilipova Ruxshona Dilmurodjon qizi**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*“Buxgalteriya hisobi va audit” yo’nalishi 3-kurs talabasi*

*Email: [abdutalibovaaa@gmail.com](mailto:abdutalibovaaa@gmail.com)*

**Ilmiy rahbar: Abdusalomova Nodira Baxodirovna**

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi moliyaviy nazorat tizimida auditning o‘rni va ahamiyati tadqiq etilgan. Auditning iqtisodiy mohiyati, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta’minlashdagi roli hamda moliyaviy nazorat tizimidagi asosiy vazifalari tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekistonda moliyaviy nazorat tizimining tarkibiy elementlari, auditorlik faoliyatining xalqaro standartlar asosida rivojlanish tendensiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalar o‘rganilgan. Tadqiqot natijasida audit sifatini oshirish, raqamli texnologiyalarni auditorlik amaliyotiga joriy etish hamda xalqaro audit standartlarini keng qo‘llash bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Moliyaviy nazorat, audit, moliyaviy hisobot, ichki nazorat, mustaqil audit, ISA, IFRS, risklarni boshqarish, korporativ boshqaruv, moliyaviy shaffoflik, raqamli audit, investitsion muhit.*

## THE ROLE OF AUDIT IN THE FINANCIAL CONTROL SYSTEM OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**Abdutilipova Rukhshona Dilmurodjon qizi**

*3rd-year Student, “Accounting and Audit” Program*

*Tashkent State University of Economics*

*E-mail: [abdutalibovaaa@gmail.com](mailto:abdutalibovaaa@gmail.com)*

**Scientific Supervisor: Abdusalomova Nodira Bakhodirovna**

**Annotation:** *This article examines the role and significance of auditing within the financial control system of the Republic of Uzbekistan. It analyzes the economic essence of auditing, its role in ensuring the reliability of financial statements, and its key functions within the financial control framework. The study also explores the structural components of Uzbekistan’s financial control system, recent trends in the development of auditing based on international standards, and advanced foreign practices in the field. Based on the research findings, scientific and practical recommendations have been developed to*



*enhance audit quality, promote the integration of digital technologies into auditing practices, and expand the application of International Standards on Auditing (ISA).*

**Keywords:** *financial control, audit, financial reporting, internal control, independent audit, ISA, IFRS, risk management, corporate governance, financial transparency, digital audit, investment environment.*

## KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, ularning harakati ustidan qat'iy nazorat o'rnatish hamda moliyaviy axborotlarning ishonchliligini ta'minlash davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, investitsion jozibadorlikning oshishi va biznes muhitining takomillashuvi ko'p jihatdan moliyaviy nazorat tizimining samaradorligiga bog'liq. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining kengayishi, moliyaviy operatsiyalarning murakkablashuvi va xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarining jadallashuvi moliyaviy nazorat mexanizmlarini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Moliyaviy nazorat tizimining muhim bo'g'inlaridan biri bo'lgan audit xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlarini mustaqil ravishda tekshirish, ularning ishonchliligi va haqqoniyligi bo'yicha xulosa berish hamda manfaatdor tomonlarni obyektiv axborot bilan ta'minlash vazifasini bajaradi. Audit investorlar, kreditorlar, aksiyadorlar, davlat organlari va boshqa manfaatdor

tomonlar uchun muhim axborot manbai hisoblanib, ular tomonidan qabul qilinadigan iqtisodiy qarorlarning asoslangan bo'lishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, auditorlik tekshiruvlari korxonalarda moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish, ichki nazorat tizimini takomillashtirish hamda moliyaviy risklarni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish, auditorlik xizmatlari sifatini oshirish hamda moliyaviy hisobotlarning xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazaning takomillashtirilishi, Xalqaro audit standartlari (ISA) va Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS)ning bosqichma-bosqich joriy etilishi milliy audit tizimini xalqaro amaliyotga yaqinlashtirishga xizmat qilmoqda. Bu esa mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish, xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuvni jadallashtirish va korporativ boshqaruv sifatini yaxshilash uchun muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi moliyaviy nazorat tizimida



auditning o'рни va ahamiyatini ilmiy jihatdan o'rganish, uning moliyaviy shaffoflikni ta'minlashdagi roli, mavjud muammolar va rivojlanish istiqbollarini tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqolaning maqsadi moliyaviy nazorat tizimida auditning iqtisodiy mohiyatini ochib berish, uning asosiy vazifalarini tahlil qilish hamda xalqaro tajriba asosida audit faoliyatini rivojlantirish bo'yicha ilmiy xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Audit tushunchasi va uning iqtisodiyotdagi ahamiyati.** Audit zamonaviy bozor iqtisodiyotining muhim institutlaridan biri hisoblanib, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobotlarini mustaqil tekshirish va ular yuzasidan professional xulosa bildirish jarayonini anglatadi. Xalqaro audit standartlariga (International Standards on Auditing – ISA) ko'ra, auditning asosiy maqsadi moliyaviy hisobotlar barcha muhim jihatlar bo'yicha amaldagi moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tuzilganligi haqida asosli ishonch hosil qilish hamda auditorlik xulosasini shakllantirishdan iborat<sup>83</sup>. Audit tushunchasi lotincha “audire” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “eshitmoq” yoki “tinglamoq” ma'nolarini anglatadi. Tarixiy jihatdan auditning ilk shakllari qadimgi Misr, Yunoniston va Rim davlatlarida davlat mablag'lari harakatini

nazorat qilish maqsadida qo'llanilgan. Zamonaviy audit esa XIX asrda aksiyadorlik jamiyatlari rivojlanishi natijasida vujudga kelgan bo'lib, investorlar manfaatlarini himoya qilish vositasi sifatida shakllangan.<sup>84</sup> Bozor iqtisodiyoti sharoitida auditning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Chunki korxonalar faoliyati yuzasidan qaror qabul qiluvchi investorlar, kreditorlar, aksiyadorlar va davlat organlari moliyaviy hisobotlarga tayanadi. Moliyaviy hisobotlarda xatoliklar yoki qasddan buzib ko'rsatish holatlari mavjud bo'lsa, manfaatdor tomonlar tomonidan noto'g'ri iqtisodiy qarorlar qabul qilinishi mumkin. Shu sababli auditorlik tekshiruvchi moliyaviy ma'lumotlarning ishonchligini tasdiqlash orqali iqtisodiy munosabatlarda ishonch muhitini shakllantiradi.<sup>85</sup>

Auditning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligi va ishonchligini tekshirish;
- buxgalteriya hisobi amaldagi qonunchilik talablariga muvofiqligini baholash;
- firibgarlik va moliyaviy xatoliklarni aniqlash;
- ichki nazorat tizimi samaradorligini baholash;

<sup>83</sup> International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). *Handbook of International Quality Management, Auditing, Review, Other Assurance, and Related Services Pronouncements*. New York, IFAC, 2023.

<sup>84</sup> Arens A.A., Elder R.J., Beasley M.S. *Auditing and Assurance Services: An Integrated Approach*. 17th Edition. Pearson Education, 2021.

<sup>85</sup> Hayes R., Dassen R., Schilder A., Wallage P. *Principles of Auditing: An Introduction to International Standards on Auditing*. Pearson, 2020.



• moliyaviy risklarni aniqlash va ularni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.<sup>86</sup>

Xususan, auditorlar moliyaviy hisobotlarda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan muhim noto'g'ri ma'lumotlarni aniqlash uchun riskga asoslangan yondashuvdan foydalanadilar. ISA 315 standartiga ko'ra, auditor korxonada faoliyati va uning ichki nazorat tizimini o'rganish orqali muhim xatoliklar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sohalarni aniqlashi lozim<sup>87</sup>. Bu esa auditorlik tekshiruvining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Auditning iqtisodiy ahamiyati, avvalo, moliyaviy shaffoflikni ta'minlash bilan izohlanadi. Jahon banki va Xalqaro Valyuta Jamg'armasi tadqiqotlariga ko'ra, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi yuqori bo'lgan mamlakatlarda investitsion muhit yanada jozibador bo'lib, xorijiy investitsiyalar hajmi yuqori darajada shakllanadi<sup>88</sup>. Shu bois audit investitsiyalarni jalb qilish va kapital bozorlarini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, audit korxonalarida korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi. OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development) tavsiyalariga ko'ra, mustaqil audit korporativ boshqaruv

tizimining asosiy elementlaridan biri bo'lib, menejment faoliyati ustidan nazoratni kuchaytiradi hamda aksiyadorlar manfaatlarini himoya qiladi<sup>89</sup>. So'nggi yillarda audit faoliyatida raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt (Artificial Intelligence) va katta ma'lumotlar (Big Data) texnologiyalaridan foydalanish kengaymoqda. Deloitte, PwC, EY va KPMG kabi yirik xalqaro auditorlik kompaniyalari audit jarayonlarini avtomatlashtirish orqali tekshiruv sifati va tezkorligini oshirmoqda.<sup>90</sup> Bu esa auditorlik kasbining an'anaviy nazorat funksiyasidan strategik tahlil va maslahat berish funksiyasiga o'tib borayotganligini ko'rsatadi. Shunday qilib, audit nafaqat moliyaviy nazorat vositasi, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, investorlar ishonchini oshirish, moliyaviy risklarni kamaytirish va korporativ boshqaruv samaradorligini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi institut hisoblanadi.

**O'zbekiston Respublikasida moliyaviy nazorat tizimi.** O'zbekiston Respublikasida moliyaviy nazorat tizimi davlat moliyaviy resurslarining shakllanishi, taqsimlanishi va ulardan samarali foydalanilishi ustidan nazoratni ta'minlovchi muhim institut hisoblanadi. Mazkur tizim iqtisodiyotda moliyaviy intizomni mustahkamlash, byudjet mablag'laridan oqilona foydalanish, korrupsion holatlarning oldini olish

<sup>86</sup> O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-677-son.

<sup>87</sup> ISA 315 (Revised 2019) *Identifying and Assessing the Risks of Material Misstatement*.

<sup>88</sup> World Bank. *Reports on the Observance of Standards and Codes (ROSC): Accounting and Auditing*. Washington DC.

<sup>89</sup> OECD. *G20/OECD Principles of Corporate Governance*. Paris, 2023.

<sup>90</sup> Deloitte Global Audit Innovation Report, 2023; PwC Global Digital Audit Survey, 2023.



hamda moliyaviy shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi. Jahon banki ekspertlarining ta'kidlashicha, samarali moliyaviy nazorat tizimi davlat boshqaruvi sifatini oshiruvchi va iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.<sup>91</sup> O'zbekiston Respublikasida moliyaviy nazorat tizimi uch asosiy bo'g'indan iborat: davlat moliyaviy nazorati, ichki moliyaviy nazorat va mustaqil auditorlik nazorati.

**Davlat moliyaviy nazorati.** Davlat moliyaviy nazorati davlat byudjeti mablag'larining shakllanishi va sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Ushbu nazoratning asosiy subyektlari O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Soliq qo'mitasi hisoblanadi. Hisob palatasi davlat moliyaviy nazoratining oliy organi sifatida davlat byudjeti ijrosi, davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari hamda davlat ulushi mavjud korxonalarining moliyaviy faoliyatini audit qiladi. Hisob palatasi tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlar natijasida davlat mablag'larining maqsadsiz sarflanishi, moliyaviy qonunbuzarliklar va samarasiz xarajatlar aniqlanadi hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.<sup>92</sup> Iqtisodiyot va moliya vazirligi davlat moliyaviy siyosatini amalga oshirish, byudjet intizomini nazorat qilish va davlat moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligini ta'minlash

vazifalarini bajaradi. Soliq qo'mitasi esa soliq tushumlarining to'liq va o'z vaqtida yig'ilishini nazorat qiladi hamda soliq qonunchiligiga rioya etilishini ta'minlaydi.<sup>93</sup>

**Ichki moliyaviy nazorat.** Ichki moliyaviy nazorat korxonalar yoki tashkilot rahbariyati tomonidan amalga oshiriladigan nazorat shakli bo'lib, moliyaviy operatsiyalar qonuniyligi va samaradorligini ta'minlashga qaratilgan. Ichki nazorat tizimi moliyaviy xatoliklar, firibgarlik va mablag'larning samarasiz sarflanishi xavfini kamaytiradi. COSO (Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission) modeliga ko'ra, samarali ichki nazorat beshta elementdan iborat: nazorat muhiti, risklarni baholash, nazorat faoliyati, axborot-kommunikatsiya tizimi va monitoring. Ushbu elementlarning samarali ishlashi korxonalar moliyaviy boshqaruvining sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ichki nazorat tizimining mavjudligi auditorlar uchun ham muhim ahamiyatga ega. Kuchli ichki nazorat tizimi auditorlik riskini kamaytiradi va audit jarayonining samaradorligini oshiradi.

**Mustaqil auditorlik nazorati.** Mustaqil auditorlik nazorati moliyaviy nazorat tizimining uchinchi va eng muhim bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. Auditorlik tekshiruvlari litsenziyaga ega auditorlik tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi va ular moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligi yuzasidan mustaqil xulosa beradi. Mustaqil

<sup>91</sup> World Bank. *Public Financial Management and Accountability Assessment*. Washington DC, 2023.

<sup>92</sup> O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi faoliyati to'g'risidagi yillik hisobotlar, 2024.

<sup>93</sup> O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi. Lex.uz.



auditning asosiy afzalligi uning xolisligidadir. Auditor korxonalar rahbariyatidan mustaqil ravishda faoliyat yuritadi va moliyaviy hisobotlarga obyektiv baho beradi. Shu sababli auditorlik xulosasi investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun muhim axborot manbai hisoblanadi.<sup>94</sup> Shunday qilib, davlat moliyaviy nazorati, ichki nazorat va mustaqil audit o'zaro bog'liq holda faoliyat yuritib, mamlakatda moliyaviy intizomni mustahkamlash, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

---

<sup>94</sup> O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. O'RB-677.



## 1-chizma. O'zbekiston Respublikasida moliyaviy nazorat tizimi



**Moliyaviy nazorat tizimida auditning roli va vazifalari.** Moliyaviy nazorat tizimida audit moliyaviy axborotlarning ishonchliligini ta'minlovchi asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Audit korxonasi va tashkilotlarning moliyaviy hisobotlarini tekshirish, ichki nazorat tizimini baholash hamda moliyaviy faoliyatning qonunchilik talablariga muvofiqligini aniqlashga xizmat qiladi. Xalqaro audit standartlariga ko'ra, auditning asosiy maqsadi moliyaviy hisobotlarda muhim noto'g'ri ma'lumotlar mavjud emasligi yuzasidan asosli ishonch hosil qilishdir.<sup>95</sup>

**Moliyaviy hisobotlarni tekshirish.** Auditning eng muhim vazifalaridan biri moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini baholashdir. Auditorlar balans, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot, pul oqimlari hisoboti va kapitaldagi o'zgarishlar hisobotini tekshiradi. Ushbu jarayon investorlar va kreditorlarga

korxonaning haqiqiy moliyaviy holati haqida ishonchli ma'lumot olish imkonini beradi.<sup>96</sup>

**Risklarni aniqlash va baholash.** Zamonaviy audit riskga asoslangan yondashuvga tayanadi. Auditor korxonasi faoliyatidagi moliyaviy, operatsion va boshqaruv risklarini aniqlaydi hamda ularning moliyaviy hisobotlarga ta'sirini baholaydi. Masalan, debitorlik qarzlarning yuqori darajada o'sishi, pul oqimlaridagi muammolar yoki ichki nazorat tizimining zaifligi korxonaning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Auditorlar aynan shu risklarni aniqlab, ularni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadi.<sup>97</sup>

**Ichki nazorat tizimini baholash.** Audit ichki nazorat tizimining samaradorligini ham baholaydi. Kuchli

<sup>95</sup> ISA 200. Overall Objectives of the Independent Auditor and the Conduct of an Audit in Accordance with International Standards on Auditing.

<sup>96</sup> Arens A., Elder R., Beasley M. Auditing and Assurance Services. Pearson, 2021.

<sup>97</sup> ISA 315 (Revised). Identifying and Assessing the Risks of Material Misstatement.



ichki nazorat tizimi moliyaviy xatoliklar va firibgarlik holatlari xavfini kamaytiradi. Auditorlar hujjatlar aylanishi, vakolatlarning taqsimlanishi, moliyaviy operatsiyalar monitoringi kabi jarayonlarni tahlil qilib, mavjud kamchiliklarni aniqlaydi.

**Investorlar va kreditorlar ishonchini oshirish. Mustaqil auditorlik Audit funksiyalarining tavsifi**

Audit funksiyasi	Mazmuni
Nazorat funksiyasi	Moliyaviy hisobotlarning qonuniyligi va haqqoniyligini tekshirish
Tahliliy funksiya	Moliyaviy holat va risklarni baholash
Maslahat funksiyasi	Boshqaruv qarorlarini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish
Profilaktik funksiya	Firibgarlik va moliyaviy xatoliklarning oldini olish
Axborot funksiyasi	Investorlar va kreditorlarni ishonchli axborot bilan ta'minlash

**Audit faoliyatining rivojlanish tendensiyalari va xalqaro tajriba.** So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan globallashuv jarayonlari, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va biznes muhitining murakkablashuvi auditorlik faoliyatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. An'anaviy audit yondashuvlari o'rnini zamonaviy texnologiyalarga asoslangan, risklarni oldindan aniqlash va strategik qarorlar qabul qilishga xizmat qiluvchi audit tizimlari egallamoqda. Shu sababli bugungi kunda audit nafaqat moliyaviy hisobotlarni tekshirish vositasi, balki korxonaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat

xulosasi investorlar va kreditorlar uchun muhim kafolat vazifasini bajaradi. OECD tadqiqotlariga ko'ra, auditorlik tekshiruvdan o'tgan moliyaviy hisobotlarga ega korxonalar investorlar tomonidan yuqori ishonchga ega bo'ladi va ularga investitsiya kiritish ehtimoli sezilarli darajada ortadi.

qiluvchi boshqaruv instrumenti sifatida ham qaralmoqda.<sup>98</sup>

**Raqamli audit va zamonaviy texnologiyalar.** Audit sohasidagi eng muhim tendensiyalardan biri raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishidir. Big Data, Artificial Intelligence (AI), Machine Learning va Data Analytics texnologiyalari auditorlik tekshiruvlarining sifatini sezilarli darajada oshirmoqda. An'anaviy auditda auditor ma'lumotlarning faqat ma'lum qismini tanlab tekshirgan bo'lsa, zamonaviy dasturiy vositalar millionlab operatsiyalarni qisqa vaqt ichida tahlil

<sup>98</sup> Hayes R., Dassen R., Schilder A., Wallage P. *Principles of Auditing*. Pearson Education, 2020.



qilish imkonini bermoqda.<sup>99</sup> Masalan, Deloitte, PwC, EY va KPMG kompaniyalari sun'iy intellektga asoslangan audit platformalaridan foydalanib, moliyaviy hisobotlarda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan xatolik va firibgarlik holatlarini avtomatik aniqlash tizimlarini joriy etgan. Bu esa auditorlik risklarini kamaytirish va audit sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

**Xalqaro audit standartlariga integratsiyalashuv.** Jahon amaliyotida auditorlik faoliyati asosan Xalqaro audit standartlari (International Standards on Auditing – ISA) asosida amalga oshiriladi. Ushbu standartlar International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, auditorlik tekshiruvlarining yagona metodologiyasini belgilaydi.<sup>100</sup>

ISA standartlarini qo'llash quyidagi afzalliklarni ta'minlaydi:

- auditorlik xulosalarining xalqaro darajada tan olinishini;
- moliyaviy hisobotlarning taqqoslanuvchanligini;
- xorijiy investorlar ishonchining ortishini;
- audit sifatining oshishini.

O'zbekiston Respublikasida ham auditorlik faoliyatini xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda auditorlik

tekshiruvlari bosqichma-bosqich ISA talablariga mos ravishda tashkil etilmoqda, bu esa mamlakatning xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuvini jadallastirmoqda.<sup>101</sup>

**Strategik auditning rivojlanishi.** Zamonaviy auditning yana bir muhim yo'nalishi strategik audit hisoblanadi. Strategik audit korxonaning moliyaviy natijalarini tekshirish bilan cheklanib qolmay, balki uning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi, raqobatbardoshligi va biznes risklarini ham baholaydi. Xalqaro tajribada strategik audit korporativ boshqaruv tizimining muhim elementi sifatida qaraladi. OECD ekspertlarining fikriga ko'ra, auditorlar korxonaning moliyaviy holati bilan bir qatorda uning strategik risklari va istiqboldagi rivojlanish imkoniyatlarini ham tahlil qilishi lozim.<sup>102</sup> Bunday yondashuv investorlar va aksiyadorlarga kompaniyaning kelajakdagi moliyaviy barqarorligini baholash imkonini beradi.

**Kiberxavfsizlik auditi.** Raqamli iqtisodiyot rivojlanishi bilan kiberxavfsizlik masalalari auditorlik faoliyatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Korxonalar faoliyatida elektron hujjatlar aylanishi, bulutli texnologiyalar va onlayn moliyaviy operatsiyalarning keng qo'llanilishi kiberxavflarning ortishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois zamonaviy

<sup>99</sup> ACCA. *The Future of Audit and Technology*. London, 2023.

<sup>100</sup> International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). *Handbook of International Standards on Auditing*, 2023.

<sup>101</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining auditorlik faoliyatini rivojlantirishga oid qarorlari va Lex.uz ma'lumotlari.

<sup>102</sup> OECD. *G20/OECD Principles of Corporate Governance*, 2023.



*auditorlar axborot tizimlari xavfsizligini ham baholaydilar. Kiberxavfsizlik auditi korxonaning axborot resurslari himoyasi darajasini aniqlash, ma'lumotlarning maxfiyligi va yaxlitligini baholash hamda potensial tahdidlarni aniqlashga qaratilgan.*

***Big Four kompaniyalari tajribasi.***

*Bugungi kunda xalqaro auditorlik xizmatlari bozorining katta qismi "Big Four" deb nomlanuvchi yirik auditorlik kompaniyalari hissasiga to'g'ri keladi:*

- *Deloitte;*
- *PricewaterhouseCoopers (PwC);*
- *Ernst & Young (EY);*
- *KPMG.*

*Mazkur kompaniyalar dunyoning 150 dan ortiq mamlakatlarida faoliyat yuritib, yirik transmilliy korporatsiyalar, banklar va investitsiya fondlariga auditorlik xizmatlarini ko'rsatadi. Ular audit jarayonlariga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, auditorlar malakasini oshirish va xalqaro standartlarni takomillashtirish borasida yetakchi o'rin egallaydi.<sup>103</sup>*

<sup>103</sup> [Deloitte](#), [PwC](#), [EY](#), [KPMG](#) global reports and publications.



## 2-chizma. Zamonaviy audit rivojlanish tendensiyalari



**Xulosa.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, audit O'zbekiston Respublikasi moliyaviy nazorat tizimining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda iqtisodiy shaffoflikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Moliyaviy nazorat tizimining davlat moliyaviy nazorati, ichki nazorat va mustaqil auditorlik nazorati kabi elementlari o'zaro uyg'un holda faoliyat yuritib, iqtisodiyotda ishonchli moliyaviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu tizimda audit moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini tasdiqlash, risklarni baholash, firibgarlik holatlarini aniqlash va investorlar manfaatlarini himoya qilish kabi muhim vazifalarni bajaradi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, xalqaro audit standartlari (ISA)ning joriy etilishi

auditorlik xizmatlari sifatini oshirish, auditorlik xulosalarining xalqaro darajada tan olinishini ta'minlash va xorijiy investorlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlili kabi innovatsion vositalarning auditorlik faoliyatiga joriy etilishi audit samaradorligini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Auditorlik faoliyatida xalqaro audit standartlarini to'liq joriy etish jarayonini jadallashtirish maqsadga muvofiq.

2. Auditorlarning raqamli texnologiyalar va axborot tizimlari bo'yicha malakasini muntazam oshirib borish zarur.



3. *Kiberxavfsizlik auditini rivojlantirish va audit amaliyotiga keng tatbiq etish lozim.*

4. *Oliy ta'lim muassasalarida audit va raqamli texnologiyalar integratsiyasiga asoslangan zamonaviy o'quv dasturlarini kengaytirish tavsiya etiladi.*

5. *Auditorlik tashkilotlarida sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahliliga asoslangan audit vositalaridan*

*foydalanishni rag'batlantirish maqsadga muvofiq.*

*Umuman olganda, audit moliyaviy nazoratning samarali mexanizmi sifatida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, investitsion jozibadorlikni oshirish va mamlakatning xalqaro moliyaviy maydondagi raqobatbardoshligini kuchaytirishda strategik ahamiyat kasb etadi.*

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

#### I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-677-son, 2021-yil.
2. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. Yangi tahrir, 2016-yil.
3. O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi. – Toshkent: Lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining auditorlik faoliyatini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari. – Lex.uz.

#### II. Xalqaro standartlar

5. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). Handbook of International Quality Management, Auditing, Review, Other Assurance, and Related Services Pronouncements. New York: IFAC, 2023.
6. International Standards on Auditing (ISA 200). Overall Objectives of the Independent Auditor and the Conduct of an Audit in Accordance with International Standards on Auditing. IFAC, 2023.
7. ISA 315 (Revised 2019). Identifying and Assessing the Risks of Material Misstatement. IFAC.

#### III. Ilmiy adabiyotlar va monografiyalar

8. Arens A.A., Elder R.J., Beasley M.S. Auditing and Assurance Services: An Integrated Approach. 17th Edition. Pearson Education, 2021.
9. Hayes R., Dassen R., Schilder A., Wallage P. Principles of Auditing: An Introduction to International Standards on Auditing. Pearson Education, 2020.
10. Messier W.F., Glover S.M., Prawitt D.F. Auditing and Assurance Services: A Systematic Approach. McGraw-Hill Education, 2022.



11. Karimov A.A., Ibragimov A.K. Audit asoslari. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2018.

12. Tursunov B.O. Audit nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.

#### **IV. Xalqaro tashkilotlar hisobotlari**

13. World Bank. Reports on the Observance of Standards and Codes (ROSC): Accounting and Auditing. Washington D.C., 2023.

14. World Bank. Public Financial Management and Accountability Assessment Report. Washington D.C., 2023.

15. International Monetary Fund (IMF). Fiscal Transparency Handbook. Washington D.C., 2023.

16. OECD. G20/OECD Principles of Corporate Governance. Paris, 2023.

17. ACCA. The Future of Audit and Technology. London, 2023.

18. ISACA. Cybersecurity Audit Guidelines. 2023.

#### **V. Internet manbalari**

19. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi – [Lex.uz](http://Lex.uz)

20. [IFAC \(International Federation of Accountants\)](http://www.ifac.org)

21. [IAASB \(International Auditing and Assurance Standards Board\)](http://www.iaasb.org)

22. [World Bank Official Website](http://www.worldbank.org)

23. [IMF Official Website](http://www.imf.org)

24. [OECD Official Website](http://www.oecd.org)

25. [ACCA Global](http://www.acca.org)